

ARAB TILIDAGI YORDAMCHI SO‘ZLARNING SEMANTIK VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

SEMANTIC AND GRAMMATICAL FEATURES OF AUXILIARY WORDS IN ARABIC

СЕМАНТИЧЕСКИЕ И ГРАММАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВСПОМОГАТЕЛЬНЫХ СЛОВ В АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ.



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-23-4-11>

Nigora Sabitovna Azimova

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Sharq tillari kafedrası o'qituvchisi

Toshkent, O'zbekiston

nigroraazimova1985@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada arab tilidagi yordamchi so‘zlarning semantik va grammatik tasnifi, ularning sintaktik vazifalari hamda gap tarkibidagi boshqaruv xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda arab tilshunoslari, xususan Antuan Dahdah va B.M. Grande ilmiy qarashlari asosida yordamchi so‘zlarning ma’no ifodalashdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, yordamchi so‘zlarning morfologik tuzilishi, semantik guruhlari va grammatik funksiyalari tizimli ravishda tavsiflangan.

***Kalit so‘zlar:** arab tili, yordamchi so‘zlar, semantika, morfologiya, sintaksis, predlog, bog‘lovchi, grammatik boshqaruv, Antuan Dahdah.*

Abstract

This article examines the semantic and grammatical classification of auxiliary words in the Arabic language, their syntactic functions, and their governing role within sentence structure. Based on the linguistic studies of Antoine Dahdah and B.M. Grande, the research highlights the semantic significance of Arabic particles and their grammatical behavior. The study also provides a systematic description of their morphological structure, semantic categories, and syntactic functions.

***Keywords:** Arabic language, auxiliary words, semantics, morphology, syntax, particles, prepositions, conjunctions, grammatical government, Antoine Dahdah.*

Аннотация

В данной статье рассматриваются семантическая и грамматическая классификация служебных слов арабского языка, их синтаксические функции и особенности управления в предложении. На основе научных взглядов Антуана Дахдаха и Б.М. Гранде раскрывается значение служебных слов в

системе арабского языка. Также анализируются их морфологическая структура, семантические группы и грамматические функции.

Ключевые слова: арабский язык, служебные слова, семантика, морфология, синтаксис, предлоги, союзы, грамматическое управление, Антуан Дахдах.

Kirish

Arab tilida yordamchi soʻzlar til tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ular mustaqil lugʻaviy maʼnoga ega boʻlmasada, gap tarkibidagi soʻzlar oʻrtasidagi grammatik va semantik munosabatlarni ifodalashda muhim vazifani bajaradi. Yordamchi soʻzlar orqali zamon, sabab, shart, istisno, taʼkid, qasam, murojaat va boshqa koʻplab grammatik maʼnolar ifodalanadi. Shu bois ularning semantik tasnifi va grammatik funksiyalarini oʻrganish arab tilshunosligining dolzarb masalalaridan biridir.

Mazkur tadqiqotda arab tilidagi yordamchi soʻzlarning semantik guruhlari, morfologik tuzilishi hamda sintaktik boshqaruv xususiyatlari zamonaviy arab tilshunoslari va klassik grammatik manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari arab tili grammatikasini chuqurroq anglash va amaliy oʻqitish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Maʼlumki, arab tilida soʻzlar uchta katta boʻlimga, yaʼni uch soʻz turkumiga: ism, feʼl va yordamchi (oʻzgarmas) yuklamalar¹ qismiga boʻlingan.

Harf soʻz turkumiga predloglar, bogʻlovchilar va oʻzining maʼnosida qoluvchi ravishlar kiradi. B.M. Grandening taʼkidlashicha, bu soʻzlar, yo hech qachon soʻz oʻzgarishiga uchramagan, yoki boshqa maʼnoda oʻzgaradigan ismning qotib qolgan vaznini bildiradi.² Arab tilida yordamchi soʻzlar – الحروف (birlikda: الحرف - harf), deb ataladi.

Mahmud Zamaxshariy harf turkumi haqida shunday fikrni bildirib, “Ism va feʼl maʼnosidan holi boʻlgan soʻz harfdir”³, - degan va yordamchi soʻzlarni harflar bobida alohida oʻrgangan.

Tadqiqotda arab tili grammatikasidagi yordamchi soʻzlarni oʻrganish va tahlil etish uchun arab tilshunoslarining asarlaridan foydalandik.

Jumladan, Antuan Dahdahning “معجم قواعد العربية العالمية” asari tadqiqotimizning asosiy manbalaridan boʻldi.

Antuan Dahdah asarining boshida arab tilidagi yordamchi soʻzlarni tasniflagan.⁴ U harflarni ikki guruhga boʻladi, yaʼni: حروف المعاني maʼno anglatuvchi harflar va حروف المباني oʻzgarmas, maʼnoga ega boʻlmagan harflar, yaʼni alifbo harflari.

Asarda حروف المباني oʻzgarmas, maʼnoga ega boʻlmagan harflarga quyidagi taʼrif beriladi:

¹ Qarang: Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskoy osvemyenii. –M.: Vostochnaya literatura, 1998. –S. 116.

² Oʻsha asar. 125-b..

³ Nosirova M. Mahmud Zamaxshariyning “Al-unmuzaj fi-n-nahv” risolasi. –Toshkent: TDSHI, 2005. 163-b.

⁴ أنطوان الددح. معجم قواعد العربية العالمية. لبنان، 1992. - ص. 12.

الحُرُوفُ الْهَجَائِيَّةُ: الْحَرَكَاتُ، التَّنْوِينُ، الضَّوَابِطُ، كِتَابَةٌ خَاصَّةٌ.⁵

Harflarning ikki turidan biri - ma'nosiz harflarga arab tilidagi tovushni ifodalovchi alifbo harflari, harakatlar, tashdid, tanvin va ba'zi yozuv elementlari kiradi.

Antuan Dahdah ikkinchi tur harflarini, ya'ni **حُرُوفُ الْمَعَانِي** - ma'noni anglatuvchi harflarni ikkita funksiyasini keltirgan, ulardan biri **مَعَانِي الْحُرُوفِ** - harflarning ma'no uchun kelishi, ikkinchisi **عَمَلُ الْحُرُوفِ** - harflarning ta'sir etish vazifasi, ya'ni boshqaruvi.

Alifbo harflari so'z bo'lishi uchun, ma'no anglatuvchi harflar esa jumla bo'lishi uchun xizmat keladi.

Mazkur harflar yordamchi so'zlar hisoblanadi. Ularning semantikasiga oid masalani Antuan Dahdah quyidagicha izohlagan⁶:

مَعَانِي الْحُرُوفِ:

1. – **إِبْتِدَاءٌ** boshlanishni ifodalaydi;
2. – **إِسْتِثْنَاءٌ** istisnoni ifodalaydi;
3. – **إِسْتِدْرَاكٌ** cheklovni ifodalaydi;
4. – **إِسْتِفْتَاَحٌ** - kirish, muqaddimani ifodalaydi;
5. – **إِسْتِيفْهَامٌ** - savolni ifodalaydi;
6. – **إِسْتِغْبَالٌ** - kelasi zamonni ifodalaydi;
7. – **إِضْرَابٌ** tuzatishni ifodalaydigan yuklama;
8. – **أَمْرٌ** buyruqni ifodalaydi;
9. – **تَخْصِيصٌ** - istakni ifodalaydi;
10. – **تَحْقِيقٌ** bajarimoq, amalga oshirmoq.
11. – **تَحْيِيرٌ** - tanlash
12. – **تَحَرُّجٌ** - umid va istakni bildirish.
13. – **تَشْبِيْهٌ** - qiyeslash.
14. – **تَصْرِيفٌ** - turlash, tushlash.
15. – **تَعْجَبٌ** - hayratni ifodalash;
16. – **تَعْرِيفٌ** - aniqlik holatini ifodalash;
17. – **تَغْلِيلٌ** - sabab.
18. – **تَفْصِيْرٌ** - ajratish, farqlash.
19. – **تَفْصِيْلٌ** - batafsil ifodalash.
20. – **تَقْلِيْلٌ** - kamaytirish, qisqartirish;
21. – **تَكْثِيْرٌ** - ko'plikni, orttirishni ifodalash.
22. – **تَمَنٌّ** - talabni, taklifni ifodalash.
23. – **تَنْبِيْهٌ** - tanbeh, ogohlantirish.
24. – **تَنْدِيْمٌ** - afsuslanishni ifodalash;
25. – **تَوْكِيدٌ** - ta'kidni ifodalash;
26. – **جَوَابٌ** - javobni ifodalash;
27. – **تَوْدُعٌ** - to'xtatishni ifodalaydi;
28. – **تَوْزِيَادَةٌ** - qo'shish, orttirishni ifodalaydi;

⁵O'sha asar. 7-b.

⁶ أنطوان الدحدح. معجم قواعد العربية العالمية. لبنان، 1992. ص. 9. Qarang:

29. – شَرْطٌ shartni ifodalaydi;
30. – حَظْرٌ holni ifodalash.
31. – عَرْضٌ taklif;
32. عَطْفٌ - biriktiruvchi soʻzlar
33. – غَايَةٌ yakun.
34. قَسَمٌ qasamni ifodalash;
35. مَصْدَرِيَّةٌ – أَنْ myuklamalari, ish-harakatnig nomini ifodalash;
36. – مُفَاجَأَةٌ biron bir hodisaning birdaniga boʻlishi.
37. نِدْبَةٌ achinishni ifodalash.
38. – مُرْجَاءٌ murojaat;
39. – نَفْيٌ inkor ifodalash;
40. – تَنْهِيٌ taʻqiq, inkor;

Mazkur semantik tahlil yordamchi soʻzlar jumlada qanday maʼno uchun kelishlarini koʻrsatadi.⁷

Ikkinchi, yaʼni ushbu harflarning oʻzidan keyingi soʻzning kelishigiga taʼsir etishi, aniqrogʻi boshqarishiga koʻra tasnif quyidagicha:

عَمَلُ الحُرُوفِ: الجَرُّ، الجَزْمُ، النَّصْبُ، النَّصْبُ الفَرْعِيُّ، العَطْفُ⁸

Yordamchi soʻzlarning boshqaruvi: jarr holati[, yaʼni qaratqich kelishigi, faqat ismlarda boʻladigan holat], jazm holati[feʼllarda boʻladigan holat, yaʼni feʼllarning shart mayli shakli], nasb holati[tushum kelishigi, mazkur holat ham feʼllarda ham ismlarda boʻladi], ikkilamchi tushum kelishigi[soʻzlarning ikkilik va koʻplik sondagi kelishigi], uyushiq boʻlaklarni [ham boshqaradi].

Yordamchi soʻzlarning ushbu boshqaruv taʼrifida bosh kelishik, yaʼni rafʼ holati mavjud emas. Buning sababi rafʼ kelishigidagi soʻz boshqaruvdan tashqarida hisoblanadi. Shuni aytish joizki yordamchi soʻzlarning hammasi ham, har doim oʻzidan keyingi kelayotgan soʻzni boshqaravermaydi. Ana shunday hollarda soʻzlar bosh kelishik shaklida qoladi.

Shuningdek, Antuan Dahdah yordamchi soʻzlarni morfologik strukturasiga koʻra ham tasniflagan, yaʼni bitta harfli yordamchi soʻz, ikkita harfli, uchta harfli va toʻrtta harfli, ular:

احادية	ثنائية	ثلاثية	رباعية	خماسية
Bitta harfli	Ikkita harfli	Uchta harfli	Toʻrtta harfli	Beshta harfli
ل، ب، ت، ء، م، س، ف، ك، ن، ه، و، ا، ي.	آ، إِذْ، أَلْ، أَمْ، أَنْ، : إِنْ، أَوْ، أَيْ، إِي، بَلْ، عَنْ، فِي، قَدْ، كَيْ، لَمْ، لَنْ، لَوْ، لَا، مُذْ، مَنْ، مَا، نْ، هَلْ، هَا، وَا، يَا	أَيَّ، أَجَلَ، إِذَنْ، إِذَا، أَلَا، إِلَى، أَمَا، إِنَّ، أَيَّا، بَلَى، ثَمَّ، جَلَلْ، جَبْرَ، خَلَا، رَبَّ، سَوْفَ، عَدَا، عَلَّ، عَلَى، لَاتَ، لَيْتَ، مُنْذُ، نَعَمْ، هَيَا	إِنَّمَا، أَلَا، إِلَّا، أَمَّا، إِمَّا، حَتَّى، حَاشَا، كَأَنَّ، كَلَّا، لَعَلَّ، لَكِنَّ، لَمَّا، لَوْلَا، لَوْمًا، هَلَا	لَكِنَّ.

⁷ شيخ مصطفى الغلاييني. جامع الدروس العربية. -القاهرة، 2007. ص. 43

⁸ أنطوان الدحدح. معجم قواعد العربية العالمية. لبنان، 1992. ص. 9

Ushbu tasnif morfologiyaga oid bo‘lib, bashta harfli yordamchi so‘z bitta ekanligini ko‘rsatadi. Tasnifga faqat asl yordamchi so‘zlar jalb etilgan. O‘zbek tili nuqtayi nazaridan o‘rganilgan ba’zi yordamchi so‘zlar ushbu tasnifda mavjud emas. Masalan, ot-predloglar yoki murakkab predloglar.⁹

Antuan Dahdah har bir yordamchi so‘zni ma’no jihatidan qanday vazifada kelishi mumkinligini ham batafsil yoritib, bir tizimga solgan.¹⁰ Ular:

- بoshlanish, buyruq, turlash, tuslash, sabab, hayrat, javobda.
- تا’kid, hol, maqsad, qasam.
- ت - sabab, ajratish, farqlash, ko‘plik yasashda, qasamda.
- ء - Savol, turlash, tuslash, murojaatda.
- م - turlash, tuslanish.
- س - kelasi zamon, tuslash, turlash.
- ف - boshlanish, javob, biriktirish.
- ك - 2-shaxs... qiyoslash, ajratish, farqlash, ta’kid.
- ن - turlash (tuslash), ajratish(farqlash), 1-chi shaxs birikma olmoshining nuni,ta’kid
- ه - turlash(tuslash),ajratish(farqlash), to‘xtash(pauzal shaklda qo‘llaniladi)
- و - boshlanish, turlash(tuslash),ajratish(farqlash), kichraytma otlarda, ko‘plikda, xolda, bog‘lashda, qasamda.
- ل - murojaatda
- ي - turlash (tuslash), ajratish(farqlash)
- أ - turlash (tuslash), ajratish(farqlash)
- إ - sabab, hol, biron bir hodisani birdaniga bo‘lishi.
- أ - anqlik artikli, nisbiy olmosh, ko‘plik yasash.
- أ - biriktiruvchi.
- أ - ajratish(farqlash), ta’kid, ko‘paytirish, ish-harakati nomi yasash
- إ - ta’kid, ko‘paytirish, shart.
- أ - istisno, tuzatish yuklamasi, tanlash, farqlash, xol va bog‘lashda.
- أ - ajratish(farqlash), murojaatda.
- إ - javobda.
- ب - boshlanish, tuzatish yuklamasi, uyushiq bo‘lakni biriktirishda.
- ع - sabab, izohlovchi va holda.
- في - sabab, ko‘paytirish, orttirish va holda.
- ق - bajarish, amalga oshirish, kamaytirish, yetarli bo‘lishda.
- ko‘paytirish, yakun, masdarni ifodalash uchun qo‘llaniladi.
- أ - inkorda.
- ل - inkorda.
- ل - talab va shartda.
- لا - javob, uyushiq bo‘laklarni biriktirish, inkor va ta’qiqni ifodalashda.
- أ - holda.

⁹ Qarang: Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997. 55-b.

¹⁰ أنطوان الدحدح. معجم قواعد العربية العالمية. لبنان، 1992. ص. 9

من - ko‘paytirish, batafsil ifodalash va holda.
ما - darajalanmagan ismlar ma’nosi, savol va hayratda.
ن - turlash, tushlash, ta’kid.
هَلْ - savolda.
ها - tanbeh, ogohlantirishda.
وا - achinish, murojaatda.
يا - achinish, murojaatda.
— آيْ murojaatda.
أَجَلْ - javobda.
إِذَنْ - javobda.
إِذَا - javobda.
أَلَا - kirish, istak, tanbeh, ogohlantirish, taklif, afsus, inkorda.
إِلَى - hol, yakunda.
أَمَّا - kirish, bajarmoq, taklifda.
إِنَّ - ta’kid.
إِيَّا - murojaatda.
بِئْسَ - javob.
نَمْ - uyushiq bo‘laklarni biriktirishda.
جَلَلْ - javobda.
جَيْرْ - javobda.
خَلَا - istisnoda.
رُبَّ - ko‘paytirish va kamaytirishda.
سَوْفَ - kutib olish, qarshilashda.
عَدَا - istisnoda.
عَلَّ - umid va istakda.
عَلَى - tuzatish(o‘zgartirish), sabab, ta’kid, shart va holda.
لَا تَ - inkorda.
لَيْتَ - talab va taklifda.
مُنْذُ - holda.
نَعَمْ - javobda.
هِيَ - murojaatda.
— إِذَا shart, holda.
أَلَا - istak, afsuslanish, inkor, ta’qiqda.
إِلَّا - istisno, uyushiq bo‘laklarni biriktirishda.
أَمَّا - batafsil ifodalash, ta’kid, shart.
إِمَّا - tanlash, batafsil ifodalashda.
حَتَّى - boshlanish, istisno va sababda.
حَاشَا - istisnoda.
كَأَنَّ - tuzatish (o‘zgartirish), qiyoslashda.
كَلَّا - to‘xtashni ifodalashda.
لَعَلَّ - umid va istak, talab va taklifda.
لَكِنْ - tuzatish (o‘zgartirish).
لَمَّا - hol, inkorda.

لؤلا - istak, shart, ta'kidida.

لؤما - istak, shart, ta'kidida.

هلا - istak, afsuslanishni ifodalashda.

– تۇزاتىش(o'zgartirish)da.

Antuan Dahdah, shuningdek. yordamchi so'zlarni grammatik funksiyalari va ularning xususiyatlari borasida ham tasnifni amalga oshirgan. U ismlarda qo'llanadigan yordamchi so'zlarni va ularning boshqaruvini ko'rsatgan. Shuningdek, faqat fe'llarda qo'llanadigan yordamchi so'zlarni boshqaruvi bilan o'rgangan.¹¹ Ham fe'lda, ham ismda qo'llanadigan yordamchi so'zlarni va ularning boshqaruviga oid tasnifni amalga oshirgan.¹²

Ma'lumki, arab tilida kelishik tushunchasi o'zgacharoq talqin qilinadi. Bu borada tadqiqotning kirish qismida ta'rif berganmiz. So'zlarning oxirida bo'ladigan o'zgarish unga ta'sir etadigan omilga bog'liq.¹³ Mazkur o'zgarish ismlarning kelishigida va hozirgi kelasi zamon fe'l shakllarida, mayillar hosil qilishda sodir bo'ladi. Demak, ismlarning kelishigi va mayillarni anglash ularga ta'sir etayotgan yordamchi so'zlarga bog'liq. Antuan Dahdah ma'noga ega harflarni, ya'ni yordamchi so'zlarning ana shu ta'sir etish xususiyatiga ko'ra ham tasniflagan. Mazkur xususiyatni quyidagicha tushuntirish mumkin: har bir yordamchi so'z o'zining ta'siridagi ismga ta'sir etib, yo qaratqich yo tushum kelishigida kelishini talab qiladi. Agar ta'sir so'z fe'l bo'lsa nasb holatida yoki jazm holatida kelishini talab qiladi. Agar yordamchi so'z ta'sir etmasa ismlar bosh kelishikda, fe'llar esa darak maylida bo'ladi. Antuan Dahdah ta'sir ko'rsatmaydigan, ya'ni undan keyin bosh kelishik qo'llaniladigan yordamchi so'z, tushum va qaratqichni talab qiladigan hamda fe'l va ismga ta'sir eta oladiga yordamchi so'zlarning ham tasnifini keltirgan. Ammo bu tasnifni keltirmadik, chunki bu tasnifni biz tadqiqotning keyingi fasllarida o'rganamiz.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, arab tilidagi yordamchi so'zlar nafaqat grammatik bog'lovchi vosita, balki muhim semantik yukni ham o'zida mujassam etadi. Ularning har biri ma'lum sintaktik vazifani bajarishi bilan birga, gap mazmunining aniqligi va mantiqiy bog'liqligini ta'minlaydi. Yordamchi so'zlarning semantik tasnifi ularning grammatik boshqaruvi bilan uzviy bog'liq bo'lib, arab tili sintaksisi va morfologiyasini o'rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot arab tilidagi yordamchi birliklarni tizimli ravishda tasniflash hamda ularning lingvistik xususiyatlarini yoritishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Grande B.M. *Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskoy osveshchenii*. Moskva: Vostochnaya literatura, 1998.

¹¹Kuzmin S. A. Uchebnik arabskogo yazыka. – Moskva, 2003. –S. 93.

¹² Qarang: 6-9. ص. أنطوان الدحدح. معجم قواعد العربية العالمية. لبنان، 1992.

¹³ Grande B.M. *Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskoy osveshchenii*. –M.: Vostochnaya literatura, 1998. –S. 291.

2. Antoine Dahdah. *Mu'jam Qawa'id al-'Arabiyyah al-'Alamiyyah*. Beirut, 1992.
3. Nosirova M. *Mahmud Zamaxshariyning "Al-Unmuzaj fi an-Nahv" risolasi*. Toshkent: TDShI, 2005.
4. Ibrohimov N., Yusupov M. *Arab tili grammatikasi*. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997.
5. Shayx Mustafo al-G'alayini. *Jomi' ad-Durus al-'Arabiyya*. Qohira, 2007.
6. Kuzmin S.A. *Uchebnik arabskogo yazyka*. Moskva, 2003.